Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat xususiy sheriklik asosida byudjetdan ajratilayotgan mablag'larning holati tahlili.....	1002
Xalilova Sh. G'	
Направления обеспечения конкурентоспособности во внешнеэкономических связях.....	1005
Ахмедов Икром Акрамович	
O'zbekistonda natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish mexanizmini rivojlantirish.....	1019
Primova Nigora Ikrom qizi	
Kichik biznes korxonalarida B2B bozorini tizimli tashkil etishning uslubiy jihatlari.....	1026
Zakirova Gulnoza Qudratovna	
Current Trends in Agrotourism in Uzbekistan: Demand, Needs, and Motives of Agritourists.....	1030
Iroda Abdieva Gayrat kizi	
Современное состояние достойного труда специалистов транспорта в условиях цифровизации.....	1035
Абдуллаева Нигора Шамсиддиновна	
Обоснование методов оценки совершенствования конкурентоспособности предприятий легкой промышленности.....	1039
Тухтасинова Мухайё Мирзасултоновна	
Проблемные аспекты трансформации финансовой отчетности бизнеса юридических лиц.....	1045
Шин Инесса Олеговна	
Cross-Cultural Management is a Separate Field of Science and Discipline.....	1051
Umarova Zulaykho, Rakhmanova Zilola	
Tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish tahlili.....	1054
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni.....	1058
Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich	
Iqtisodiy inqiroz davrida kredit xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy modellari....	1062
Kurbonov Rustam Radjabovich	
Raqamli transformatsiya konsepsiyalari va uning ahamiyati.....	1067
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari.....	1074
Xalilova Shoxsanam G'ayrat qizi	
"EIZ" hududida soliq va bojxona rejimlari uchun imtiyozlarni tahlil qilish.....	1079
Xusanov Durbek Nishonovich, Djurayeva Iroda Bahrom qizi	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari.....	1083
Aliqulov Mehmonali Salahiddin o'g'li	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda sun'iy texnologiyalarning o'rni.....	1088
Xonova Nodira Fazliddinovna	
O'zbekistonning investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish yo'llari.....	1093
Sotimov Yunusbek Turg'unboy o'g'li	
"Yashil" sanoat siyosatini yuritish zaruriyati: bozor nuqsonlaridan milliy xavfsizlikkacha.....	1198
Muqimov Sherali Axmadali o'g'li	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatining hozirgi holati tahlili va rivojlantirish istiqbollari.....	1103
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
Improving the Methodology of Econometric Analysis of the Efficiency of Financial Activity of Agricultural Agroclusters of Uzbekistan.....	1108
Ochilov Ilhom Sayitkulovich	



O'zbekistonda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "Uglerod neytralligiga erishish" strategiyalarining ahamiyati	1116
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li, Bazarov Shodi Abdirahmonovich	
Oziq-ovqat mahsulotlari brend qiymatini oshirishda marketing strategiyalari.....	1123
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан	1129
Рузибоева Нилуфар Тулкин кизи	
Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun mintaqaviy siyosat vositalarining xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1135
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion marketingning o'rni va mohiyati.....	1142
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1146
Samandarova Dilfuza Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari: mavjud muammolar va yechimlar.....	1153
Fatilloev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlili.....	1158
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llari ("Agrobank" ATB misolida).....	1167
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1172
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi va xorijda tog' turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash	1177
Mavlanov G'olibjon Muxammad o'g'li	
Improving The Effective Use Of Local Taxes And Levies In Tashkent City	1182
Shahzad Zokhidov	
Совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога	1186
Мухиддинов Талат Шайдулло угли	
Tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi.....	1189
I. M. Kamoliddinov, To'khtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish xususiyatlari.....	1194
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish.....	1199
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1203
Ahrorov Farhod Baxriddinovich	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashtirishdan foydalanish	1208
Muhitdinov Asror Akobirovich	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari	1213
Djumayev Zayniddin Axmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari	1219
Tursunov Nozimjon Nosirovich	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
Saida Yuldasheva	



INSON RESURLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH

Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi



Ilmiy rahbar: Topildiyev Sohijjon Rahimjonovich
Iqtisodiyot fanlari doktori professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson resurslarini boshqarish va u orqali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan o'zgartirish, ularning malakasini oshirish, qayta tayyorlash va o'qitish mexanizmini yo'lga qo'yish to'g'risida so'z boradi. Inson resurslarini intensiv usulda takomillashtirish orqali umumiy iqtisodiyotdagi soha va tarmoqlarni rivojlantirish ko'zda tutiladi. So'nggi yillardagi islohotlar natijasida mehnat resurslarini boshqarish sohasidagi tub burilish va yaratilgan imkoniyatlar atroficha bayon etilgan.

Kalit so'zlar: inson resurslari, kadrlar, tarmoqlar, intensiv, ishlab chiqarish, malaka, kapital.

Abstract: This article will talk about the development of Human Resource Management and, through it, the fundamental transformation of the personnel training system, the development of their skills, retraining and establishing a training mechanism. Improving human resources in an intensive way, it is envisaged to develop areas and sectors in the general economy. As a result of the reforms of recent years, a fundamental turn in the field of labor resource management and the opportunities created are described in detail.

Key words: human resources, personnel, networks, intensive, production, qualification, capital.

Аннотация: В данной статье речь пойдет об управлении человеческими ресурсами и кардинальном изменении системы обучения через нее, налаживании механизма повышения их квалификации, переподготовки и обучения. Предполагается развитие отраслей и секторов экономики в целом за счет улучшения человеческих ресурсов интенсивным способом. Подробно описан коренной поворот и созданные возможности в области управления трудовыми ресурсами в результате реформ последних лет.

Ключевые слова: человеческие ресурсы, персонал, отрасли, интенсивность, производство, квалификация, капитал.

KIRISH

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda eng muhim resurslardan biri bu, albatta, inson resurslari hisoblanadi. Chunki barcha iqtisodiyot tarmoqlarida kadrlar masalasi hozigi davrgacha dolzarb bo'lib kelmoqda. Buni biz rivojlangan mamlakatlar tajribasida ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, G'arb davlatlarida inson resurslarini rivojlantirishda va sohaga alohida e'tibor bilan yondashishlarini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda qaysiki davlat inson resurslarini boshqarish sohasiga investitsiya kiritar ekan, albatta, bu o'z samarasini bermay qolmayapti. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2016-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida: "Hayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Bu o'rinda asosiy muammo, quyidagilardan iborat, birinchidan, ayrim idoralar va ularning rahbarlari real hayotdan va xalq ehtiyojlaridan ma'lum darajada uzilib qolmoqda, ikkinchidan, tarmoq va hududlarni rivojlantirish konsepsiyalari va dasturlarini ishlab chiqishda yuzaki yondashuvga yo'l qo'yilmoqda" – deb ta'kidlagan. Shunday ekan, iqtisodiyotni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo'lgan tarmoq va korxonalar shuningdek hududlar darajasida hozirgi kunning eng dolzarb muammolarining yechimini topishga inson resurslarini boshqarish orqali erishishimiz mumkin.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Peters va Uoterman (1982) birinchi bo'lib ichki madaniyat ayrim eng "omadli" Amerika kompaniyalariga raqobatli kurashda muhim ustunlikka ega bo'lishini ta'minlaganligini isbotladilar. Bu kompaniyalarni "omadli" qilgan narsalar faqat kishilar haqida g'amxo'rlik va aynan IRM(inson resurslari markazlari) bo'yicha metodlarning rivojlanish darajasi emas, balki ular kuchli ichki madaniyatni - umumiy qadriyatlar, jamoaviy anglangan maqsadlar, xarizmatik liderlar, ularning sadoqatlikni, bozorga yuzlanganlikni ulug'lashi bo'ldi. Bundan tashqari ular eng kam rasmiy nazoratdan foydalanib ham yaxshi natijalarga erishishga qodir edilar. Nazorat asosan ijtimoiy vositalar (ko'pchilik qabul qilgan normalar, munosabatlar) yordamida amalga oshiriladi edi).

Iqtisodchi olim Abdurahmonov bu borada "inson resurslari – mamlakat aholisining foydali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan jismoniy rivojlanish, aqliy qobiliyatlar va bilimga ega bo'lgan qismlar tushuniladi", deb ta'rif bergan. Lekin bu olimlarning hech biri o'z ilmiy ishlarida kadrlar siyosati iqtisodiyotning rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi borasida so'z yuritishmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishlari davomida statistik, ilmiy va kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, kuzatuv, mantiqiy fikrlash, analiz, sintez, taqqoslash kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inson resurslari bo'yicha har davlat bo'lsin yoki uning hududida faoliyat yuritayotgan korxona bo'lsin, o'zining ma'lum bir strategiyasiga ega. Bu sohani rivojlantirmasdan turib ishlab chiqarishni oshirish yoki iqtisodiyotni rivojlantirish deyarli imkonsiz. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida uning o'rni beqiyosdir. Respublikamizda bozor munosabatlarining samarali joriy etilishi birinchi navbatda inson resurslaridan samarali foydalanishga bog'liq. Biz uchun faqat bitta ustuvorlik– inson manfaatlari ustuvorligi muhim ahamiyatga ega, mehnatga haq to'lash darajasi va aholi daromadlarini keskin oshirish, mamlakatda iste'mol bozorini rag'batlantirish siyosatini davom ettirish uchun ishonchli baza yaratilmoqda. Olimlarning fikricha, kadrlarning ishlab chiqarishdagi roli to'g'risidagi 4 konsepsiya mavjud:

- Mehnat resurslaridan foydalanish
- Personalni boshqarish
- Inson resurslarini boshqarish
- Insonni boshqarish.

Bu konsepsiyalarga muvofiq inson tashkilotning asosiy subyekti va boshqaruvning alohida obyekti bo'lib resurs sifatida qaralishi mumkin emas. Insonning istaklari va qobiliyatidan kelib chiqqan holda tashkilotning strategiya va tarkibi tuzilishi kerak. Ushbu konsepsiya asoschilari Yaponiyaning yetakchi olimlari hisoblaniladi. Yirik tashkilotlarda mehnat resurslarga umumiy rahbarlik mas'uliyati kadrlar bo'limining malakali xodimlariga yuklatilgan bo'lib, u odatda shtab xizmatlari tarkibiga kiradi. Bu mutaxassislar tashkilot maqsadlarini amalga oshirishga yordam berishi uchun, ular faqat o'z sohalarini emas, balki quyi bo'g'in rahbarlarining ehtiyojlarini ham bilishlari zarur. Shu bilan birga bu rahbarlar mehnat resurslarini boshqarish xususiyatlarini, uning mexanizmi, imkoniyatlari va kamchiliklarini tushunmasa, kadrlar mutaxassislari xizmatlaridan umumli foydalana olmaydilar. Shuning uchun barcha rahbarlar insonlarni boshqarish usullari va metodlarini bilishi va tushunishi muhim.

Inson resurslarini boshqarish tizimi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. **Resurslarni rejalashtirish:** inson resurslariga kelgusi ehtiyojlarni qondirish rejasini ishlab chiqish.
2. **Personalni to'plash:** barcha lavozimlar bo'yicha potensial nomzodlar rezervini tashkil etish.
3. **Tanlash:** ish joylariga nomzodlarni baholash va rezervdan eng yaxshilarini tanlash.
4. **Ish haqi va imtiyozlarni aniqlash:** xizmatchilarni jalb qilish, yollash va saqlab qolish maqsadida ish haqi va imtiyozlar strukturasi ishlab chiqish.
5. **Kasbga yo'naltirish va moslashuv:** yollangan ishchilarni tashkilot va uning bo'linmalari bilan tanishtirish, ishchida undan nima kutilayotganligi haqida tushuncha hosil qilish va qanday mehnat yaxshi baholanishini tushuntirish.
6. **O'qitish:** ishni samarali bajarish uchun kerakli mehnat ko'nikmalarini o'rgatish uchun dasturlar ishlab chiqish.



7. **Mehnat faoliyatini baholash:** mehnat faoliyatini baholash metodikasini ishlab chiqish va uni xodimga yetkazish.
8. **O'stirish, pasaytirish, o'tkazish, bo'shatish:** xodimlarni lavozimlarga yoki boshqa ish uchastkalariga o'tkazish metodlarini ishlab chiqish.
9. **Rahbar kadrlarni tayyorlash, xizmat ko'rsatishlarini boshqarish:** rahbar xodimlarni mehnat samaradorligini ko'tarishga va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish.

Kadrlar tayorlashdek, muhim vazifalarni bevosita ish beruvchilar ta'lim muassasalari bilan birga hamkorlik qilgan holda amalga oshiradilar. Bu yerda kadrlar tayyorlash bilan shug'ullanuvchi ta'lim tashkilotlarining o'rni katta. Bu sohada ham yaqin yillardan boshlab jadal raqobat asosida ish beruvchilar uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirdi.

1-jadval: Inson resurslarini boshqarishga yondashuvlar¹

Faoliyat sohasi	Nimaga ustuvorlik beriladi	Qanday funksiyalarni bajaradi	Bajarilishi to'g'risida kimga ma'lumot beriladi
Inson resurslarini boshqarish (strategik yondashuv)	-mutlaq yangi vazifalarni yechishga; -global, uzoq muddatli vazifalarni yechishga;	- inson resurslarini rejalashtirish; -shaxsiy qobiliyat va malakani oshirish; -korxonaning xodimlariga sarflanadigan xarajat doirasida xodimlar uchun xarajatlarni rejalashtirish;	Korporatsiya prezidentiga
Xodimlar bilan ishlash (tezkor faoliyat)	Ma'muriy aralashuvga, zaruriyat tug'iladigan kundalik masalalarni yechishga.	-kadrlarni tanlash va joy joyiga qo'yish; -mehnat motivatsiyasini boshqarish, texnika xavfsizligini nazorat qilish; -nizolarni hal qilish;	Korporatsiya vitse-prezidentiga

Mamlakatimizda o'tmishdagi markazlashgan iqtisodiy rejalashtirishdan so'ng bozor iqtisodiyoti mexanizmlaridan keng foydalangan holda davlat tomonidan siyosat olib borishi mamlakat aholisining turmush tarziga ta'sir ko'rsatgani shubhasizdir. Markazlashtirilgan rejalashtirish insonning mehnat sohasidagi xulq-atvorini cheklab qo'ydi, bu esa unga faollik, mustaqillik, qobiliyatlik, yangilikka intilish, ya'ni inson kapitalining rivojlaniishi uchun juda kam imkoniyat qoldirdi. Bozor iqtisodiyoti esa aksincha, inson tashabbusini nazarda tutadi. Shuning uchun ham inson resurslari har bir bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashgan va moslashayotgan davlatlarda eng dolzarb va rivojlanayotgan soha bo'lib qolmoqda. Buni biz "ichkaridan tashqariga" usuli orqali ko'rib chiqishimiz mumkin. Ya'ni kichik bir korxonadan boshlab butun bir davlat miqyosigacha sohani iqtisodiyotga ta'sirini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Xodimlarni boshqarish samaradorligi ko'p jihatdan xodimlarni tanlashga bog'liq. Xodimlarni tanlash – bu ikki tomonli jarayondir. Bir tomondan korxona da'vogarga ish berish yoki ish bermaslikni hal qilsa, ikkinchi tomondan da'vogar agar ishga taklif qilinsa, u bu taklifni qabul qilish kerakmi yoki kerak emasligini hal qiladi. Bu jarayonda rahbar quyidagi holatlarga o'z e'tiborini qaratmog'i lozim.

Da'vogarga berilgan baholar va tavsiyalarni tahlil qilganda, shuningdek muzokaralar olib borilganda:

- uning topshirilayotgan ishni bajara olishiga;
- zarur bo'lib qolganda kasbiy ma'lumotini oshira bilishiga;
- texnikaga nisbatan e'tiboriga;
- fe'l-atvoriga;
- halolligi, mulohazaliligi, turmushda hozir-nozirli va to'g'riligiga;
- tashabbuskorligi, hayotga talabchanligiga;
- ishga hamda ish kuning davomiyligiga;
- og'ir sharoitda o'zini tutishiga;
- salomatligi, tashqi ko'rinishi, vaqtini taqsimlay bilishiga;
- hunari va bo'sh vaqtlardagi mashg'ulotlariga diqqat qilish lozim.

Bulardan tashqari shuni unutmaslik kerakki, ishga qabul qilinayotgan nomzod topshiriladigan ishni bajarishga yaroqligina bo'lib qolmay, balki korxonaning boshqa xodimlar bilan chiqishib ketadigan ham bo'lish kerak. Agar u keyingi talabga muvofiq kelmasa, odatda yaxshi mutaxassisning ham bahridan o'tish kerak.



Biz hozir faqatgina korxona miqyosida kadrlarni boshqarish tizimini ko'rib chiqdik. Endilikda Respublika va mahalliy davlat organlarida inson resurslari boshqarish tizimi bilan tanishamiz. Davlat organlari o'rtasida ham inson resurslarini boshqarish tizimiga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.09.2023-yildagi "Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida inson resurslari boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 492-son qarori qabul qilindi. Bu qaror orqali eng muhim narsa bu- inson resurslarini boshqarish tizimini raqamlashtirish bo'ldi. Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida inson resurslarini boshqarishga oid ma'lumotlar va hujjatlarni "hrm.argos.uz" elektron platformasida shakllantirish va yuritish tartibi o'rnatildi. Endilikda davlat organlarining ishga qabul qilish natijalari bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish, tarkibiy tuzilma, shtatlar, lavozimlar va xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va ularga ishlov berish, xodimlar faoliyatining samaradorligini avtomatik tarzda baholash, kadrlar bo'yicha ma'lumotlarning elektron arxivini yuritish, rahbar kadrlar uchun belgilangan zaxiralarni shakllantirish hamda inson resurslarini boshqarishga oid boshqa faoliyati elektron platformada amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi.

Iqtisodiyotdagi kadrlar siyosati – inson resurslari jarayonlariga va ularning iqtisodiyotga qanday ta'sir qilishiga oid ish beruvchi-xodim munosabatlariga e'tibor qaratadi. Shuningdek, u turli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar ish beruvchi va ishchi munosabatlariga qanday ta'sir qilishiga qaratilgan. Shu sababli, iqtisodiyotdagi inson resurslari mehnat munosabatlari iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydi. Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar esa ularga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida inson resurslari iqtisodiyotga foyda keltirish uchun mehnatni tashkil qiluvchi jamoaviy jarayonlarni qo'llashni anglatadi. Iqtisodiyot rivojlanishi uchun ishlab chiqarish omillaridan foyda oladi. Ishlab chiqarish omillariga foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarishga yordam beruvchi resurslar kiradi. Asosiy omil tadbirkorlik bo'lib, u odamlarning boshqa ishlab chiqarish omillarini, masalan, yer, mehnat va kapitalni to'plash va foyda olish uchun foydalanish qobiliyatidir. Ishlab chiqarish omillari iqtisodiy ahamiyatga ega.

Demak, ishsizlik omil emas. Iqtisodiy manfaatlar uchun xizmatlar va tovarlar ishlab chiqarish uchun mehnatning asosiy omili inson resurslaridir. Iqtisodiyotda inson resurslari samarali mehnatni ta'minlash uchun ko'nikma, bilim va tajribadan foydalanadi. Shuning uchun uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar inson resurslarining elementi emas. Inson resurslari iqtisodiyotda samarali bo'lishi uchun ishchi kuchini tashkil qiladi. Ishkuchi – bu iqtisodiyotni rivojlantirish uchun turli ko'nikmalardan foydalanadigan iqtisodiyotning bir qismi. Turli iqtisodiyotlarda ishchi kuchlari turlicha boshqariladi. Yuqori texnologik yutuqlar va daromad darajasi yuqori bo'lgan sanoatlashgan mamlakat iqtisodiyotlari mavjud. Shuning uchun bunday iqtisodiyotdagi inson resurslari yuqori tezlikdagi telekommunikatsiya liniyalari bilan bog'lanishga ixtisoslashgan. Bu sanoatlashgan iqtisodiyot uchun eng samarali hisoblanadi, chunki u texnologik yutuqlardan foydalanadi. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlardagi ishchi kuchiga ko'proq siyosiy yoki ijtimoiy omillar, masalan, kasaba uyushmalari ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inson resurslari sohasini butun boshli iqtisodiyot ning soha va tarmoqlarini ishlash mexanizmining tomirlari sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Tarmoqlarni rivojlantirishda xodimlarni intensiv usulda rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki dunyo globallashuvi davrida barcha jabhada ekstensiv usuldan intensiv usulga bosqichma-bosqich o'tilmoqda. Bu borada inson resurslarini boshqarish tizimi ham qolishmaydi. Rivojlangan davlatlar iqtisodiy tizimida inson resurslarini boshqarish alohida o'rin egallar ekan. Chunonchi inson resurslarini boshqarishni rivojlantirish strategiyasining bosh masalasi – xodimlarni, kadrlar xizmati faoliyatini tashkil qilish, ularni rivojlanishi zaminida iqtisodiy ravnaq va katta daromadlarni ko'zlash turar ekan. Rivojlangan davlatlarda inson resurslarni boshqarish, kadrlarni tayyorlash tizimlari o'zaro bir-birlariga o'xshash tomonlari va ayni paytda har bir mamlakatning o'ziga xos spetsifik xususiyatlari, elementlari mavjud ekan. Bizning vazifamiz bularni chuqur o'rganib, tahlil etib, ulardan respublikamizda kadrlarni tayyorlash va inson omilini rivojlantirishda o'rinni foydalana olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Human Resource Management. Fifteenth Edition/Robert L.Malthis, John H.Jackson Sean R. Valentine. Patricia A. Megllich 2017.2014 Cengage Learning WCN 02.200.206.
2. Inson resurslarini boshqarish (darslik). Gulnora Abdurahmonova. –T.: O'zR FA "Fan" nashriyoti davlat korxonasi, 2021. 696 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.09.2023-yildagi 492-son qarori (www.lex.uz).
4. Абдурахмонов Қ.Х., ва бошқалар., Инсон тараққиёти. –Дарслик. –Т.: "Фан ва технология". –2014. – 234-б.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.